

**“YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR ILMIY VA  
MA’NAVIY MEROSINING O’RNI”**

**Xayitov Azizbek Abdujabbar o'gli**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti*

*O‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**

*Gumanitar fanlar fakulteti*

*“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasи o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mustaqillikga erishganimizdan so‘ng o‘zbek mumtoz adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr bosqlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘li koproq organila boshlandi. Bobur Mirzoning buyukligi shundaki, u qaysi yurtga hukumador bo‘lmashin, eng avvalo, jaholatga emas, ezgulikka, adolatga xizmat qildi. Mahalliy aholining farovonligi, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishiga hissa qo‘shdi. Yurtni obod qilishga kirishdi, muhtasham obida va bog‘lar bunyod etdi. Uning oqilona siyosatini davom ettirgan vorislari esa bugun ham dunyoning yetti mo‘jizasi sifatida e’tirof etib kelinayotgan Tojmahal, Qizil qal‘a kabi noyob, muhtasham arxitektura yodgorliklari, masjidu madrasalar bunyod ettirdi. Maqolaa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur ilmiy va ma’naviy merosi haqida to’xtalib o’tamiz.

**Kalit so‘zlar:** Tuyuq, qit’a, fard, masnaviy, majmuasi, “Xatti Boburiy”, “Qobul devoni”, “Mubayyin”, “Vaqoye”, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“.

### **Kirish**

Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra Andijon shahrida Bobur nomida teatr, kutubxona, milliy bog‘ („Bog‘i Bobur“) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida „Bobur va jahon madaniyati“ muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiyev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi.

Ulug‘ o‘zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi, markazlashgan davlat va boburiylar sultanati asoschisi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida (1483-yil 14-fevral) tug‘ildi. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg‘ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi. 1503-1504 yillarda

Afg'onistonni egalladi. 1519-1525 yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. Uch asrdan ortiq davom etgan (1526-1858 yillar). Boburiylar sultanatiga asos soldi. 1530-yilning dekabr oyida Agra shahrida vafot yetdi. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko'ra Qobulga ko'chirilgan. Lirik merosi "Qobul devoni" (1519)ga, 1528-29 yillarda "Hind devoni"ga jamlangan.

To'liq devon tuzgani haqida ma'lumot bor. She'rлarining umumiylajmi 400 dan ortadi. Shundan 119 g'azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g'azali va „Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.

Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zorbalar va turmush uqubatlari, zamona noso'zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rin tutadi. Uning g'azal va ruboilarida, tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

O'zbekistonning Erondag'i elchixonasiga Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asari qo'lyozmasining fotonusxasi topshirildi. Kitob nusxasi Eron fors tili va adabiyoti akademiyasi raisining o'rribbosari Muhammad Rizo Nossiri tomonganidan o'zbek diplomatlariga taqdim etildi.

"Mubayyin" - falsafiy-diniy mavzudagi asar bo'lib, unda Bobur Mirzo islom dinining besh ruknini hanafiy mazhabi asoslari doirasida qanday to'g'ri bajarilishini bayon qilgan. Qo'lyozma eski o'zbek tilidagi eng go'zal hattotlik yo'naliishlaridan biri - nastaliq xatida ko'chirilgan. Shuningdek, u fors tiliga tarjima qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu qo'lyozma bundan 400 yil avval Hindistonda qog'ozga tushirilgan. "Mubayyin" qo'lyozma nusxasi Eron hududiga Kashmir orqali olib kelgingan. Kitob so'nggi 120 yildan ortiq vaqt davomida "Guliston" saroyi muzeyi kolleksiyasida saqlanmoqda.

Qayd etish kerakki, "Mubayyin" asari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi tomonidan O'zbekiston bilan bog'liq xorijiy qo'lyozmalar ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek xalqining tarixiy va madaniy merosi namunalarini Vatanga qaytarish haqida topshiriq bergen edi.

Mamlakatning xorijdagi diplomatiya vakolatxonalari mazkur markaz bilan ushbu yo‘nalishda yaqin hamkorlik qilmoqda.

Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan shoirdir. Boburning ulug‘ asari “Boburnoma” bo‘lib, uni “Vaqoye” deb ham nomlaydilar. Buyuk memorial asarda 1494-1529 yillar Markaziy va kichik Osiyoda, Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarida kechgan voqealar bayon yetilgan. “Boburnoma” ning o‘ndan ortiq qo‘lyozma nusxalari bor. Asarni Qozonda N.I. Ilminskiy (1857), Londonda Beverij xonim nashr (1905) etgan. O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda asardan parchalar e ‘lon qildi. “Boburnoma” ning 1948-1949 “Boburnoma” ni Abdurahim xoni (1586) fors tiliga, Vitsen (1705) golland tiliga, J.Leyden (1826) va V.Erskin ingliz tiliga, Pavel de Kurteyl (1871) fransuz tiliga, Rashit Rahmati Arat (1940) turkchaga, Mixail Sale (1943) ruschaga tarjima qilganlar. 1826-1985 yillar davomida “Boburnoma” 4 marta ingliz (1826,1905,1921,1922), 3 marta fransuz (187, 1980, 1985), 1 marta nemis (1878) tiliga o‘girilgan.

Bobur yangi alifbo – “Xatti Boburiy” ni (1504) kashf qildi. Unda she’rlar yozdi va Qur’on ko‘chirtirdi. Boburning soliq ishlari haqida ma’lumot beruvchi “Mubayyinul-zakot” (1521), aruz vazni haqidagi “Risolai aruz” (1523-25) kabi asarlari bor. “Aruz risolasi”da turkiy aruzning tabiatи, taraqqiyoti va she’riy asarlardagi ko‘rinishlari; aruzning 272 vazni va 21 bahriga ilmiy sharhlar berilgan. Xoja Ahror Valiyning “Voldiya” asarini o‘zbekchaga she’riy tarjima qilgan. Boburning “Harb ishi”, “Musiqा ilmi” nomli asarlar yaratgani haqida ham ma’lumot bor. Ammo, ular topilgan emas.

Boburnoma - jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyatini bilan bevosita bog‘liqdir.

„Boburnoma“ o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg‘oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinci qismda Boburning Kobulni zabit etgani, so‘ng u yerda mustaqil

davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniyalar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabit etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib (qarang Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat.

„Boburnoma“ da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shim. Afg‘onistonning 15-asr 80-90- yillari va 16-asr 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doyr xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqeа haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar - Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulqatvori, tabiat xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiy, tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha kattakichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘sish tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurolyarog‘ turlari, qurg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy ma’rifiy istiloxlar (tuman, ulus, ko‘kaltosh, eshikog‘a, axtachi, taxxon, shig‘ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug‘chi, miroxur, rikobdor, dorug‘a, murchil, manjaniq, o‘ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek, „Boburnoma“ da temuriylar qo‘sining tuzilishi, harbiy san’ati va boshqa haqida ham noyob ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasbhunari, urfodatlari, rasmrusumlari, an‘anaviy tadbirmarosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma’lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar viloyatlarning jug‘rofiy ma’rifiy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘ladirlari, tog‘ sahrolari, bog‘u rog‘lari, tabiat, iqlimi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma’lumotlar beriladi. Xususan 15-16-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo‘yluk (qo‘yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turkmo‘g‘ul qabilalarining urfodatlari, harbiy mahoratlari haqidagi ma’lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g‘oyatda qimmatli bo‘lib, ular o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. „Boburnoma“ da Farg‘ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O‘ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag‘oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g‘oyatda qiziqarli tavsif

qilingan bo‘lib, muallif o‘zi yurgan yo‘llar, o‘zi bo‘lgan shahar va qishloqlarni g‘oyat darajada aniq tasvirlagan.

„Boburnoma“ da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o‘nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariyy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G‘ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko‘plab san’atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi.

Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadkiqotlarida „Boburnoma“ ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. Asarning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslaring xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingлиз tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij „Boburnoma“ ni mustaqil suratda asl nusxdan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida „Boburnoma“ tarjimalari 9-marta nashr etildi.

Ma’lumki, „Boburnoma“ qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504-05, 1509—18, 1520—24) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rinnlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma’lum darajada tiklaganlar. „Boburnoma“ forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. „B.“ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg‘oniston (Abdulkay habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R. R. Arat va N. I. Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham „Boburnoma“ dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilminskiy „Boburnoma“ni Qozonda nashr ettirdi. (1857).

Yulduzli tunlar“ — o‘zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so‘z yuritiladi. Qodirov mazkur roman ustida o‘n yil (1969-1978) davomida ish olib borgan., „Yulduzli tunlar“ ga „Boburnoma“ hamda „Humoyunnoma“ asarlari asos bo‘lgan., „Yulduzli tunlar“ zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng sara asarlaridan biri hisoblanadi. Qodirov 80-yillarda „Yudduzli tunlar“ romanining mantiqiy davomi sanalmish, Boburning farzandi Humoyun va nabirasi Akbar Jaloliddin Muhammad hayoti haqida hikoya qiluvchi „Avlodlar dovon“ („Akbar“) romanini yozgan., „Yulduzli tunlar“ dunyoning bir necha tiliga, jumladan, rus,qoraqalpoq, qirg‘iz, qozoq, urdu, turkman, hind hamda bengal tillariga tarjima qilingan.

Mahoratli yozuvchi Pirimqul Qodirovning ushbu asari o‘zbek adabiyotining eng sara tarixiy romanlari sirasiga kiradi. Unda Movarounnahrdekk ulkan sultanatning

parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini, tog'a-jiyanlarning fojiaviy qismati aks ettirilgan. Roman voqealari orqali o'quvchi tarixda Temuriylar o'rtasidagi nizolar, fitna, fisq-u fasod tufayli yuzaga kelgan qonli urushlar, ayovsiz xunrezliklar oqibatida behad qonxo'r beklar zulmidan sillasi butkul qurigan xalqning g'oyat nochor ahvoli va uyushqoqlikdan bexabar Temuriylarni Shayboniyxon qanchalar oson mahv etgani bilan tanishadi.

Asarning bosh qahramoni mirzo Bobur odamlardagi bemehrlik, bir-birini ko'rolmaslik, xudbinlik, xiyonat singari jirkanch illatlar bilan g'oyat erta, o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi. Taqdirning ayanchli zarbalaridan zada bo'lgan shoxning kuygan yuragi - shoир qalbi qalandarlikni ixtiyor etgani ajab emas. Asar mutolaasi davomida butun umr Vatan ishqida yonib, sog'inch bilan o'rtanib, «Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim...» deya iztirob chekkan bobokalonimiz dardi kitobxon qalbini larzaga soladi.

"Yulduzli tunlar" dunyoga mashhur o'zbek hukmdori, atoqli shoир, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan asar."Yulduzli tunlar" zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi.O'zbekiston Xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ushbu roman o'zining talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanini aytgan.Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarining dunyo yuzini ko'rishi oson kechmagan"Bobur mirzo temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib, asrdan-asrga, mamlakatdan-mamlakatga olib o'tganligi, bu ulug' sulola Hind zaminida yana uch yuz yildan ortiq davr surganligi o'sha yillardayoqdilimda hayrat va iftixor tuyg'usini uyg'otgan edi", deb yozadi adib roman so'z boshisida.

Pirimqul Qodirov Bobur Mirzo haqidagi asarini 1969- yilda boshlab, oradan 30 yil o'tgandan keyingina romanni "avvaldan rejorashtirilgan, dilda pishitilgan" boblar bilan to'ldirib chop etishga muvaffaq bo'lganini yozgan.

Asarda shoир va shoh Bobur hayotini tasvirlash muhim o'rinn tutadi. «Yulduzli tunlar» keng hamrovli asardir. Unda Boburning shaxsiy xislatlari, oilaviy hayoti - onasi Qutlug' Nigor xonimga chin farzandlik tuyg'usi, opasi Xonzodabegimga inilik, farzandlaridan Humoyun va Gulbadanga otalik mehri, birinchi umr yo'ldoshi Oyshabegim bilan o'tkazgan ko'ngilsiz damlar dramasi, Mohim bilan g'aroyib tanishuv daqiqalari, Mohimning Boburga cheksiz sadoqati, Panipat jangida halok bo'lgan Ibrohim Lodining onasi Malika Bayda (u Boburni zaharlashga erishgandan so'ng, ikki raqib ro'para keladi. Shunda Malika Bayda shohdan o'lim kutadi, bu bilan shoh ustidan manaviy tantanaga erishmoq, onani o'limga hukm etgan shohni el oldida sharmanda qilmoq istaydi, lekin buni sezgan Bobur uni jazolamay, o'zining tanti shoh ekanligini ko'rsatadi) bilan Bobur orasidagi munosabat hayajonli, go'zal ifodalangan. Adib butun asar davomida Boburning shoh, fotih sifatida qilgan shafqatsizliklari uning eng katta gunohi ekanligini doimo ta'kidlab boradi. Bobur tarixchi olim Xondamir bilan

suhbatda deydi: «...avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o'ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o'zimizga nechog'liq og'ir tushganidan ogoh bo'lsinlar... Toju-taxt bevafoligini ko'pdan beri sezib yuribman. Menga vafo qilsa, faqat yozgan asarlarim vafo qilmog'i mumkin. Vatanimga o'zim qaytolmasam ham asarlarim qaytmog'i mumkin. Endigi orzuim - men tug'ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...».

Asarda Bobur bilan yonma-yon Shayboniyxon («imoni zamон», «xalifai rahmon» deya ulug'langan shaxs), Oyshabegim, Zuhrabegim, Xadichabegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Malika Bayda, Mohim, Humoyun, Qutlug' Nigorxonim kabi ko'plab tarixiy shaxslar obrazi ham yaratilgan. Zuhrabegim va Xadichabegimga munosabatdayoq Shayboniyxonning o'ta yovuz, shafqatsiz, uyatsiz, munofiq bir kimsa ekani ayon bo'ladi. Zuhrabeginning bosqinchi xon «iltifoti»ga umid bog'lab, uning maktubidagi soxta «sevgi» izhoriga ishonib huzuriga kelishining o'ziyoq bu ayol ma'naviy saviyasi qay darajada ekanini bildiradi.

Tarixiy manbalarda uchraydigan ayrim nom va faktlardan yozuvchi butun boshli tirik inson obrazi, syujet yo'nalishlarini yaratadi. Masalan, romanda Tohir degan obraz mavjud. Uning ham tarixiy asosi bor. Bobur Mirzo umrining oxirida toju taxtdan voz kechib, bir go'shada Tohir oftobachi bilan birga turmoqchi bo'lganini aytadi. Demak, Tohir unga ko'p yaxshiliklar qilgan, qadrdon bo'lib qolgan...

### **Xulosa**

2020-yil 20-yanvarda Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so'zga chiqqan prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tarixni anglashning ahamiyati haqida to'xtalib, ..."Ming afsuski, bizga sovet davrida Pushkin, Lermontovning bobolari xoki qayerda to'kilganini o'qitgan xolos. Alisher Navoiy yoki Boburlarni o'qitmagan. Rus tilida o'qigan odamlar Pushkin, Lermontovni o'qigan. Biz hech kimga Boburni o'qitmaganmiz" degan fikr bilan Boburni asarlarini o'qir ekanmiz, uning ekologiya haqida yozganlarini o'qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o'ylaysiz. Bobur qoldirgan ilmiy-adabiy merosi yoshlarni ezgu g'oya, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarimizga ehtirom, yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati cheksiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va asarlarining yosh o'zbek olimlari tomonidan o'rganilayotgan ekan, bugungi kunda o'zbek davlatchiligi tarixida Boburiylar sulolasining o'rni va yoshlar ma'naviyatidagi ibratli jihatlari, Bobur adabiy merosi, sulola vakillarining jahon adabiyoti va san'atiga qo'shgan hissalarini qancha o'qib, o'rganilsa shuncha oz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

19. Мирзиёев Ш.М. «Мы построим наше великое будущее вместе с нашим храбрым и благородным народом» – Ташкент. «Узбекистан», 2017.

20. Mirahmedova, S. N. (2021). Is'xoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 770-778.
21. Nusratilloyevna, M. S. (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(7), 128-130.
22. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(7), 135-137.
23. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makonga oid yondashuvlar. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
24. Mirahmedova, S. (2023). Harakatlar strategiyasi-O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqich asosi hamda jamiyatdagi o'zgarishlar. *PEDAGOG*, 6(5), 42-54.
25. Mirahmedova, S. (2023). Mafkuraviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 180-182.
26. Nusratilloyevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.
27. Babayeva, S. (2022). The emergence of artistic thinking in the composition of modern Uzbek novels. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 538-544.
28. Бабаева, С. (2021). Бадиий тафаккурнинг замонавий ўзбек насирида акс этиши. *Международный журнал искусство слова*, 4(2).
29. Mannapovna, J. O., Saparbayeva, D. T. (2022). The art of music is a factor of art technology and creativity. *Open Access Repository*, 8(11), 160-166.
30. Jabborova, O. M., & qizi Saparbaeva, D. T. (2022). Independent educational methodology. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 6, 30-34.
31. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makon: imkoniyat va istiqbollar. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 93-95.
32. Karimova, Z. A. (2024). Организация коррекционно-образовательной воспитательной работы с детьми. Тенденции развития образования и педагогики, 1(1), 185-194.
33. Rustamova, M. R. (2022). Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixoemotsional holatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Конференция, 1(1), 405-407.
34. Рахимова, И. И., Рустамова, М. Р. (2022). Тўлиқ бўлмаган оиланинг таърифи ва хусусиятлари. Интеграция в мир и связь наук, 1(1), 17-20.
35. Sultanova, Sh. S. (2022). Socio-Psychological Factors in the Formation of Feelings of Patriotism in Adolescents. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(1), 75-78.

36. Sultanova, Sh. S. (2022). The Role of Mass Media in the Formation of Patriotic Senses in Students. International Journal of Multidisciplinary Research In Science, Engineering and Technology, 5(5), 914-917.